

G'AFUR G'ULOMNING BADIY MAHORATI ("MENING O'G'RIGINA BOLAM" HIKOYASI MISOLIDA)

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti talabasi
Boyqobilova Marjona O'ktam qizi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mohir so'z san'atkori, iste'dodli adib shoir va akademik G'afur G'ulom ijodi hamda "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasining badiiy-estetik g'oyalari, asarda keltirilgan obrazlar tahlil qilinadi. Asarning zamon va makonda moslashishi, davr bilan hamnafasligi, hozirgi zamon va kelajak avlodlar hayoti uchun dolzarbligi o'rganildi.

Kalit so'zlar: Zamon, makon, hikoya, feleton, dolzarblik, badiiy ijod, estetik did.

Аннотация. В данной статье анализируется творчество мастера слова, талантливого писателя, поэта и академика Гафура Гулама, а также художественно-эстетические идеи рассказа "Mening o'g'rigina bolam", образы, представленные в произведении. Изучены адаптация произведения во времени и пространстве, его актуальность для эпохи и значение для жизни нынешнего и будущих поколений.

Ключевые слова: Время, пространство, история, фельетон, актуальность, художественное творчество, эстетический вкус.

Annotation. This article analyzes the work of the master word artist, talented writer, poet and academician Gafur Ghulam, as well as the artistic and aesthetic ideas of the story "Mening o'g'rigina bolam", the images presented in the work. The adaptation of the work in time and space, its relevance to the era, and its relevance for the lives of the present and future generations were studied. You will get acquainted with the thoughts related to the life and work of Gafur Ghulam.

Keywords: Time, space, story, feuilleton, relevance, artistic creativity, aesthetic taste.

KIRISH

G'afur G'ulom O'zbekiston xalq shoiri, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi. Adib o'zining yosh avlodga qoldirgan buyuk merosi bilan o'zbek shoirlari va yozuvchilari orasida alohida e'tiborga sazovordir. Adib 1903-yili 10-mayda Toshkent shahrining Qo'rg'ontegi mahallasida dehqon oilasida dunyoga kelgan. U otasidan erta etim qolgan. Shoir to'qqiz yoshidan Navoiy, Hofiz, Sa'diy, Fuzuliy asarlarini sevib o'qiy boshlagan. G'afur G'ulom 1916-yil kuzida o'qishga kiradi. Onasining vafotidan so'ng u ishlashga majbur bo'lgan. U o'zini bir qancha kasblarda sinab ko'radi. 1919-

yildan 1927- yilgacha o'qituvchi, maktab direktori, Ma'naviyat uyushmasi ishchilari raisi bo'lib ishlaydi, bolalar uyini tashkil etishda faol ishtirok etadi. Adibning ilk yozgan asarlari ham aynan etim bolalar hayoti va ularning taqdiri haqida yozilgan. Shoirning kasbiy faoliyati haqida so'z ketganda uning mohir publitsist ekanligini ta'kidlash zarur. Shuningdek, G'afur G'ulom bir qancha gazetalarda jumladan, "Kambag'al dehqon", "Sharq haqiqati", "Mushtum", "Yer yuzi", "Qizil O'zbekiston" kabi jurnallarda adabiy hodim, mudir, bosh moharrir o'rinbosari lavozimlarida ishlagan va o'zining kasbiy va ijodiy mahoratini o'stirib borgan¹.

ASOSIY QISM

G'afur G'ulomning adabiy faoliyati 1923-yildan boshlanadi. She'rlar, dostonlar, feletonlar, ocherklar, hajviy hikoyalar va qissalari gazeta va jurnallarda chop etila boshlaydi. G'afur G'ulom o'z ijodi davomida saksondan ortiq feleton yozgan bo'lsa, 1929-yilning o'zidagina yigirmata feletonni e'lon qilgan. Adibning "Oshpichoq ko'targanlar", "Jomasi pok, o'zi nopok bandalar" va ba'zi feletonlarini satiric hikoya tarziga ko'taradi. Bular "Guvohlikka o'tgan ho'kiz", "Siyrak la'li Badaxshonlardan biri", "Sayyoh sozandalar haqida" va boshqalar². 1923-yilda yozilgan "Felix farzandlari" she'rida etim bolalar hayotini qalamga oladi va aynan adib o'zining hayotini tasvirlaydi. "Maorif va o'qituvchi" oynomasida "Go'zallik nimada?" nomli ikkinchi she'ri nashr etiladi. Shundan so'ng uning birin-ketin she'riy to'plamlari nashr etiladi. "Dinamo", "Xitoy suratlari", "Biz sizlar bilan tirikmiz", "Jonli qo'shiqlar", "Sizga", "Sovg'a", "Tong qo'shig'i", "Qo'qon" dostoni va boshqalar. G'afur G'ulom ijodi uch azim daryo bilan sug'orilgan. Bularning birinchisi sharq poeziyasidir. G'afur G'ulom sharq adabiyoti durdonalarini chuqur o'rgangan. Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Bedil kabi fozil olimlar ijodini yaxshi ko'rgangan ularning yozgan irod namunalaridan yod olgan. Adib o'tgan asrning 20-yillaridayoq, ayniqsa, o'zbek, ozarbayjon, tatar, fors-tojik, adabiyotlarini chuqur o'rgangan. U Navoiy va Furqat, Mashrab va Muqimiy, Avaz O'tar va Nodira kabi o'zbek adabiyotining ulug' shoirlarini, Nizomiy, Fuzuliy singari Ozarbayjon shoirlarini, shayx Sa'diy va Hofizdek fors-tojik adabiyotining buyuk siymolari ijodini juda yaxshi bilgan. Akademik S.Mamajonovning G'afur G'ulom bilan muloqot paytlaridagi Bedildan nimalarni o'rganganligini so'ragani haqida "Shoir buyuk san'atkordan chuqur falsafiy mushohadakorlik hamda mubolag'ali o'xshatishlardan qanday foydalanishni o'rganganligini aytgan va ulug' shoir o'z ijodiga ta'sirini dunyoni falsafiy idrok etishdan qidirmoq lozimligini ta'kidlagan edi" deya xotirlaydi³. G'afur G'ulom sharq adabiyotidan chuqur teran insoniylikni, gumanizmni, falsafiy chuqurlikni o'zlashtirgan. Shu bilan birga ularning yuksak nafosatini, poetik mushohadadagi

¹ Karimov H. va boshqalar. XX asr 'zbek adabiyoti tarixi. Darслик. – Toshkent: 'qituvchi. 1999. – B. 226.

² Karimov H. va boshqalar. XX asr 'zbek adabiyoti tarixi. Darслик. – Toshkent: 'qituvchi. 1999. – B. 229.

³ Mamajonov S. Gafur Gulom prozasi. – Toshkent: Fan, 1996.

teranlikni, soʻz ishlatishdagi sanʼatkorlikni, mubolagʻalarning hadsizligini, oʻxshatish va sifatlashlarning aniqligini oʻzida singdirgan. Gʻafur Gʻulom bahramand boʻlgan yana bir daryo xalq ogʻzaki ijodi hisoblansa, uchinchi daryo rus adabiyotidir. Rus adabiyoti durdonalaridan koʻplarini tarjima qilgan. Gʻafur Gʻulom yosh boʻlishiga qaramay koʻplab hajviy sheʼrlar muallifidir. Jumladan, “Qish va shoirlar”, “Valahu ayzan”, “Voy dod, bormayman dedi” singari sheʼrlari adabiyot ixlosmandlarining qalbidan joy olishga ulgurgan. Gʻafur Gʻulom ham boshqa ijodkor yozuvchi va shoirlar singari oʻz ijodida bir nechta taxalluslardan foydalangan. Uning “Qish va shoirlar” hajviy sheʼri “Koʻsa”, “Voy dod, bormayman dedi” sheʼri esa “Nurtoy” taxallusi bilan yozilgan. Gʻafur Gʻulom yosh boʻlishiga qaramay koʻp qirrali isteʼdod sohibi edi. Shoir haqida bir qancha chet el olimlari oʻzlarining iliq fikrlarini bayon qilishgan. Shulardan biri Belarus xalq shoiri Yakub Kolas “Bu odam ajoyib shoirgina emas, balki sofdil va jasur oʻzbek xalqi donishmandligining ham timsolidir” degan boʻlsa, qardosh tojik shoiri A.Lohutiy “Gʻafur Gʻulom oʻzbek madaniyati xazinasidagi yaraqlab turadigan tugʻma talantlardan, olmoslardan biridir. Bu olmosning qirralarida ulugʻ Navoiy avlodlarining asrlar osha ehtiyotlik bilan asrab keltirilgan ajoyib soʻz sanʼati jilva beradi”, - deya eʼtirof etadi. Buyuk adib haqida Chingiz Aytmatov Gʻafur Gʻulom turkigoʻy xalq sheʼriyati rivojiga buyuk hissa qoʻshgan”, – deya eʼtirof etadi⁴. Gʻafur Gʻulomning badiiy mahorati u yaratgan asarlar va obrazlarda namoyon boʻladi. Yozuvchining “Netay”, “Tirilgan murda”, “Shum bola”, “Yodgor” kabi qissalari oʻzbek xalqi orasida juda ham mashhurdir. Adibning yozgan asarlari asosida kinofilmlar ham suratga olingan. “Shum bola” qissasi aynan shular sirasiga kiradi. Gʻafur Gʻulom ijodi zamon va makonda moslashadi. Shoirning urush yillarida yozilgan “Kuzatish”, “Qish”, “Sogʻinish”, “Xotin”, “Bizning koʻchada ham bayram boʻlajak”, “Suv va nur” sheʼrlarini kiritish mumkin. Shoir bu sheʼrlari orqali urushning yomon illat ekanligini, xalqimizning ogʻir turmushini aks ettiradi. Sheʼrlari orqali insonlarga tasalli berishga ularga soʻzlari orqali koʻmak berishga urinadi. Ijodkorga Oybek 1935-yildayoq “Gʻafurning sheʼr va dostonlari aksar vaqt jangovar ham kurashuvchan ruhni ifoda etadi, buyuk inqilobiy davrning fikr va tuygʻulari, motivlari, joʻshqinligini kuylaydi. Fikr, sevgilarni, voqealarni aniq, yaqqol, qirrali, qabariq va yangi obrazlarga berishga intiladi” deb yozgan edi⁵. Gʻafur Gʻulom ijodining eʼtiborga loyiq jihatlaridan yana biri shuki, bu uning tarjimalaridir. Yozuvchi M.Gorkiy, A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, V.V.Mayakovskiy kabi mashhur adiblarning asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Gʻafur Gʻulomning tarjima sohasida erishgan eng katta yutugʻi Shekspirning “Otello” tragediyasini tarjima qilganidir. Shoir bu tarjimasini mahorat bilan tarjima qilishga erishgan va oʻzbek xalqi adabiyot durdonalarini yana bittaga koʻpaytirgan.

⁴ Матёкубова Т. Ғафур Ғулом бадияти // Фан ва технология. – Тошкент: 2006.

⁵ Каримов Н. Ғафур Ғулом. – Тошкент: Ғафур Ғулом. 2003.

Gʻafur Gʻulomning adabiyot sohasida olib borgan ijodiy izlanishlari uni Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy aʼzosi boʻlishga turtki boʻldi. Eng yaxshi asarlari xususan, “Sharqdan kelayotirman” sheʼriy toʻplami hamda “Yodgor”, “Shum bola” qissalari, hajviyalari va bolalar adabiyotini rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari uchun 1963-yili “Oʻzbekiston Xalq shoiri” unvoni beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Gʻafur Gʻulom koʻpgina lirik-dramatik yoʻnalishdagi hikoyalar yozdi. Ularda inson fojiasini va ular yashayotgan muhitni koʻrsatadi. Yozuvchi 1965-yili “Mening oʻgʻrigina bolam” hikoyasini va “Xasan kayfiy” yumoristik hikoyasini eʼlon qiladi. Adibning “Mening oʻgʻrigina bolam” hikoyasi urush yostigʻini quritgan, zamon teskari aylangan vaqtdagi insonlarning hayotidan olingan. Asarda ota-onasidan etim qolgan toʻrt bola va sakson yoshlarni qarshilagan qora buvi hamda tom ustidagi oʻgʻrining boshidan oʻtkazgan hodisalari bayon qilingan. Hikoyada urushning insonlar turmushiga qanchalik talofat keltirgani tasvirlangan. Urush davrida insonlarning kun kechirishi, oilasini, farzandlarini qanday boqishi haqida bosh qotirishgan. Aynan “Mening oʻgʻrigina bolam” hikoyasi bayonida tom ustida yurgan oʻgʻri aksa urib yuboradi. Bu holatdan uygʻoq yotgan qora buvi uni payqab qoladi va xoy, oʻgʻrigina bolam tumov boʻldingmi? deb savol beradi. Shunda tomdagi oʻgʻri ha, buvijon siz ham tinchgina uxlasangiz boʻlmaydimi deya gapiradi. Shunda ikkovlari soʻzlashib qolishadi. Qora buvi koʻzlariga uyqu kelmayotganini shu etim bolalarning kelajakda holi nima boʻlishi haqida oʻylarini soʻzlab beradi. Oʻgʻri ham yashash qiyinlashib, oʻgʻirlikka ilojsizlikdan qoʻl urganini gapirib beradi. Urush boʻlganligi sababli koʻp insonlarning uyida yoʻqchilik, hattoki bir burda noni yoʻqligini aytadi. Qora buvi oʻgʻriga boylarning uyiga borishi haqida gapiradi. Oʻgʻrining soʻzlariga koʻra, hozir zamon qattiq, boylarning hovlisiga oʻgʻirlikka tushib boʻlmaydi chunki ularning devorlari sakkiz qavat, uylarida katta-katta itlari, qoʻriqlaydigan odamlari borligini ulardan narsa oʻgʻirlab boʻlmasligini aytadi. Tomdagi oʻgʻri va qora buvining suhbatidan anglash mumkinki, bu davrda koʻpchilik insonlar tirikchilik uchun shunday ishlarga qoʻl urishgan. Qoʻllarida hunarlari boʻlgan odamlar ham dastgohlarini sotib puliga un, non olishayotganini, koʻcha-koʻylarda etim bolalar bir burda non soʻrab qoʻllarini choʻzishlarini nadomat bilan gapirib beradi. Bu holatlarning barchasiga yozuvchi urushni sabab qilib koʻrsatadi. Negaki, urush sabab koʻp oilalar boquvchisidan ayriladi. Aholi oʻrtasida ocharchilik avj olishiga sabab boʻladi. Yozuvchi shunday qiyinchiliklarni koʻrib voyaga etadi. Asarda oʻgʻrining oʻgʻirlik qilishi ham mahorat bilan tasvirlangan. Har bir kasbning sir-asrori boʻlganidek, bu ishning ham oʻz qonun-qoidasi bor. Yaʼni oʻgʻri va qora buvi suhbatida oʻgʻri tovuq oʻgʻirlagani haqida gapirib beradi. Qora buvi tovuqlarning ovozi qoʻlga tushib qolmadingmi deb soʻraganida, oʻgʻri qiziq holatni aytib beradi: “Hayotda tovuqdek

ahmoq jonivor bo'lmasa kerak. O'g'irlikka borganimda o'zim bilan bir shishada suv olaman. Suvdan og'zimni to'ldirib tovuqlar ustiga purkayman. Tovuqlar yomg'ir yog'yabti deb o'ylab boshini berkitib oladi. Shunda bo'ynidan ushlab xaltaga solaman" deydi. Ammo bu ishlarni qilayotganidan o'g'ri afsuslanadi. Negaki, insonlarning ko'pchiligi urush sababli ijtimoiy ahvoli yomonlashgan edi. Qora buvi ko'p bora urushning nomi o'chishini, urushi uni boshlaganlarning boshiga etishini iltijo qiladi. Qora buvi o'g'riga "xoy, o'g'rigina bolam" deya murojaat qiladi. Bu ham bejizga emas. Qora buvining samimiyligi, o'g'rini tushungani va uning ham oilasi uchun shu ishlarni qilib yurganini buvi biladi. Qora buvi o'g'riga tong yorishib qolganini o'tin yorib bersa, choy qaynatib choy ichishga, zog'ora nondan birga eyishga taklif qiladi. Ammo o'g'ri rozi bo'lmaydi. Andisha qiladi. Mehmondo'st xalqimiz orasida mehmonning hurmatini joyiga qo'yib, uyidan quruq qaytarmaslik an'anaga aylangan. Qora buvi ham qutlug' uydin quruq ketma bolam deya unga uyidagi katta qozonni olib ketishini aytadi. Lekin o'g'ri buni rad etadi. O'g'ri kelajakda yaxshi kunlar kelishiga, o'sha kunlarda nevaralari qozonni to'ldirib elga osh berishiga, bu kunlar ham unut bo'lishiga ishonadi. Ular suhbat qurayotganida kun ham yorisha boshlagan edi. Buni ko'rib o'g'ri buvijon men bora qolay tong yorishsa meni kimligimni tanib qolasiz men bundan uyalaman degan so'zlarni aytadi. Va tomdan tushib ketadi. Ko'rinib turibiki, o'g'ri majbur bo'lganidan bu ishga qo'l uradi lekin uning ham insofi, diyonati va andishasi bor. Yozuvchi hikoya so'ngida o'g'rining kimligini bilishini va uyg'oq yotgan bola yozuvchining o'zi ekanligini bu hikoya yozuvchining hayotidan olinganligini aytadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, har bir inson tinchlikning qadriga etishi, xalqimizning boshidan o'tkazgan qora kunlaridan o'zi uchun xulosa chiqarishi lozim. G'afur G'ulom XX asr o'zbek nasri va she'riyatining yirik vakili hisoblanadi. Uning barcha asarlarida vatanga muhabbat, tinchlik, sog'inish, vaqtning qadriga etish tuyg'ulari ko'zga tashlanadi. Adib yaratgan har bir asar o'quvchining qalbida o'chmas iz qoldiradi. Chunki adib xalq dardi bilan yashadi, o'z asarlari bilan xalq dardiga malham bo'ldi. Mashhur tanqidchi Ozod Sharafiddinov tabiri bilan aytganda: "Zamonlar o'tib, kelajakda jahon poeziyasining tarixi yaratiladigan bo'lsa, uning XX asr she'riyatiga bag'ishlagan bobida Lorka, Pablo Neruda, Nozim Hikmat kabi mashhur nomlar qatorida o'zbek shoiri G'afur G'ulomning nomi ham muqarrar o'rin oladi"⁶.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

⁶ Каримов Н. ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи. 1999.

1. Каримов Н. ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи. 1999.
2. Амилова М. Ўзбек совет адабиётида фолклор анъаналари. – Тошкент: Фан. 1990.
3. Матёкубова Т. Ғафур Ғулом бадиияти // Фан ва технология. – Тошкент: 2006.
4. Каримов Н. Ғафур Ғулом. – Тошкент: Ғафур Ғулом. 2003.
5. Ғафур Ғулом замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ғафур Ғулом. 2003.
6. Мамажонов С. Ғафур Ғулом прозаси. – Тошкент: Фан, 1996.